

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 3213,3 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 64,9 ming kishiga yoki 2,1 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1383,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 43,1 %), qishloq aholisi soni 1829,8 ming kishini (56,9 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **64,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **82,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **13,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **31,6 mingta nikoh** va **1,6 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2018-2019 yillar 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Qashqadaryo viloyati	3148,4	3213,3	102,1
Qarshi sh.	267,6	271,3	101,4
Shahrisabz sh.	134,5	137,2	102,0
tumanlar:			
G'uzor	195,8	199,2	101,7
Dehqonobod	140,7	143,7	102,1
Qamashi	259,5	264,8	102,0
Qarshi	236,4	241,7	102,2
Koson	272,4	278,2	102,1
Kitob	254,1	259,2	102,0
Mirishkor	114,7	116,8	101,8
Muborak	83,1	84,8	102,0
Nishon	144,9	148,6	102,6
Kasbi	188,1	191,7	101,9
Chiroqchi	389,6	400,0	102,7
Shahrisabz	214,7	218,2	101,6
Yakkabog`	252,3	257,9	102,2


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Chiroqchi tumanida 400,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 12,4 %ni) va Koson tumanida 278,2 ming kishini (8,7 %), Qarshi shahrida 270,4 ming kishini (8,5 %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida 84,8 ming kishi (2,6 %) va Mirishkor tumanida 116,8 ming kishini (3,6 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Nishon tumanida 2,8 %ni, Chiroqchi tumanida 2,5%ni, Dehqonobod 2,2%ni, Koson tumanlarida 2,1%ni, Qarsi tumanida 2,0%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qarshi shahrida 1,3 % ni va Muborak tumanida 1,7 tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 82,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,8 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,8 promillega ko'paygan (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 24,0 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Muborak tumanida (22,1 promilledan 24,7 promillega) va Qarshi shahrida (17,9 promilledan 20,7 promillega) Koson (24,6 promilledan 25,6 promillega) va Kitob (24,1 promilledan 24,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bolalar:
38,7
ming nafar

O'g'il bolalar:
43,4
ming nafar

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



Demografik holat

Qashqadaryo viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi (yanvar-dekabr)

	2017 y.	2018 y.	O`sinh sur`ati %da
Qashqadaryo viloyati	76687	82053	106,9
Qarshi sh.	4765	5567	116,8
Shahrisabz sh.	3169	3372	106,4
tumanlar:			
G`uzor	4664	4944	106,0
Dehqonobod	3877	4056	104,6
Qamashi	6549	6934	105,8
Qarshi	5133	5288	103,0
Koson	6641	7035	105,9
Kitob	6071	6398	105,4
Mirishkor	2784	2900	104,2
Muborak	1821	2073	104,2
Nishon	3792	3921	103,4
Kasbi	4495	4667	103,8
Chiroqchi	11999	12990	108,2
Shahrisabz	4560	4854	106,4
Yakkabog`	6367	7054	110,8

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 13,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,2 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Qarshi (4,9 promilledan 4,4 promillega) Kasbi va (4,5 promilledan 4,2 promillega), Chiroqchi (4,0 promilledan 3,7 promillega) Koson (4,0 promilledan 3,6 promillega), Mirishkor (4,3 promilledan 4,1 promillega), Dehqonobod (4,1 promilledan 3,9 promillega) va Muborak (4,3 promilledan 4,1 promillega), tumanlarida kuzatildi.


Vafot etganlar



Erkaklar
: 7,2
ming

Ayollar:
5,8 ming
kishi

Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



Demografik holat


Qashqadaryo viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi (yanvar-dekabr)

	2017 y.	2018 y.	O`sinh sur`ati %da
Qashqadaryo viloyati	13201	12966	98,2
Qarshi sh.	1175	1158	98,6
Shahrisabz sh.	545	535	98,2
tumanlar:			
G`uzor	898	942	104,9
Dehqonobod	567	549	96,8
Qamashi	1075	1062	98,8
Qarshi	1136	1060	93,3
Koson	1082	995	91,9
Kitob	929	964	103,8
Mirishkor	461	455	98,7
Muborak	358	341	95,3
Nishon	559	560	100,2
Kasbi	841	796	94,6
Chiroqchi	1525	1479	97,0
Shahrisabz	928	910	98,1
Yakkabog`	1122	1160	103,4

Demografik holat

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 56,4 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,7 %i o'simtalardan, 6,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,6 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,1 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,2 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 16,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 720 nafarni tashkil etib, ularning 66,0 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 15,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 7,1 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,5 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,2 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,0 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 6,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.



2018 yil yanvar-dekabr

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 69,1 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 5,6 ming kishiga (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 63,4 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
69,1 ming kishi

Demografik holat


Nikoh. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 31,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,9 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (118,7 %), Dehqonobod (112,3 %), Romitan (78,6 %), Kasbi (106,5 %) va eng yuqori kamayish sur'atlari Dehqonobod (88,0 %), Koson (92,8%), Chiroqchi (93,5 %), Yakkabog' (97,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Miriskor (127,9 %) va eng yuqori kamayish sur'atlari Dehqonobod (67,6 %), Koson(82,2%), Kitob (76,4 %), Nishon (80,0 %)Chiroqchi (67,6 %) Chiroqchi (89,7%)tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



Demografik holat

Hududlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr)



Qashqadaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-dekabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
Qashqadaryo viloyati	31765	31594	99.5	1952	1626	83.3
Qarshi sh.	1985	2356	118.7	292	288	98.6
Shahrisabz sh.	1154	1108	96.0	152	102	67.1
tumanlar:						
G'uzor	2013	2021	100.4	102	95	93.1
Dehqonobod	1640	1444	80.0	74	50	67.6
Qamashi	2804	2825	100.7	132	117	88.6
Qarshi	2203	2253	102.3	132	110	83.3
Koson	2820	2618	92.8	118	97	82.2
Kitob	2508	2368	94.4	221	166	75.1
Mirishkor	1089	1149	105.5	43	55	127.9
Muborak	813	858	105.5	39	38	97.4
Nishon	1527	1715	112.3	85	68	80.0
Kasbi	1864	1986	106.5	76	72	94.7
Chiroqchi	4350	4068	93.5	173	117	67.6
Shahrisabz	2241	2153	96.1	147	99	67.3
Yakkabog'	2753	2672	97.1	166	149	89.7

Demografik holat

Migratsiya. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 11,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 15,2 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 4,1 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 3,9 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	11,1	11,0
Ko'chib ketganlar	15,0	15,1
Migratsiya saldosi	-3,9	-4,1

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Qarshi tumanida (minus 1,0 ming kishi), Kitob Mir-ishkor va Shahrisabz Kitob tumanlarida (minus 0,4 ming kishi) qayd etildi.

